



**EGE UNIVERSITETI**  
**VA**  
**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**O'Rtasida**  
**O'ZARO KELISHUV MEMORANDUMI**

O'zaro hamkorlikni mustahkamlash hamda o'zaro almashinuvni rivojlantirish maqsadida, **EGE UNIVERSITETI**, Genchlik ko'chasi, №:12, Bornova, Izmir, Turkiya va **O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**, Kichik Halqa Yoli ko'chasi 21, G-9A mavzesi, Toshkent 100173, O'zbekiston,, o'rtalarida quyidagi shartnomaga tuzildi:

***1-modda: Hamkorlik sohalari***

Ikki ta'lif muassasasi o'rtafigi hamkorlik akademik va madaniy aloqalarni rivojlantirish nuqtai nazaridan amalga oshiriladi. Ushbu hamkorlik ikki muassasada taklif qilinadigan barcha yo'nalishlar va fanlar bo'yicha ta'lif va tadqiqot faoliyatini o'z ichiga oladi.

***2-modda: Hamkorlik shakllari***

1. Ikkala ta'lif muassasasining o'zaro hamkorligi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanmaydi:
  - (i) Ikkala ta'lif muassasasining professor-o'qituvchilarini va/yoki tadqiqotchilarini almashinuvini rag'batlantirish;
  - (ii) doktorlik dissertatsiyasiga tayyorlanayotgan professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlarni qabul qilishga ko'maklashish;
  - (iii) Ikki ta'lif muassasasining professor-o'qituvchilarini va tadqiqotchilarini tomonidan hamkorlikda olib borilayotgan tadqiqotlarni va tadqiqot natijalarini birgalikda nashr etishni rag'batlantirish;
  - (iv) har ikki muassasadan talabalar almashinuvini rag'batlantirish;
  - (iv) ma'lumotnomalar, nashrlar, akademik ma'lumotlar va adabiyotlar almashinuvini rag'batlantirish.
  - (v) Har bir institutning ilmiy bo'limlari va fakultetlari, ilmiy laboratoriyalari va markazlari, kutubxonalari va turli ma'muriy tashkilotlariga biriktirilgan ma'muriy va xodimlarining o'zaro almashinuviga ko'maklashish.

- Ushbu hujjatda aniq belgilangan holatlardan mustasno hollarda ushbu Memorandumda ko'rsatilgan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq har qanday shartlar ikkala muassasa va manfaatdor tomonlar bilan kelishib olinadi va faoliyat boshlanishidan oldin yozma hujjat bilan tasdiqlanadi.

***3-modda: Fakultet professor-o'qituvchilarini va ilmiy xodimlarning almashinuviga***

- Ikkala ta'lim muassasasi ham bir-biridan tashrif buyuruvchi professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilarga shart-sharoit yaratib berishdan iborat. Tashrif buyurgan professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilar qabul qiluvchi universitetning qoidalari va talab qiladigan ma'muriy tartib-qoidalarga rioya qiladilar.
- Ikkala muassasa ham boshqa institutning professor-o'qituvchilarini yoki tadqiqotchilariga iqtisodiy yordam ko'rsatishi mumkin, ammo bu majburiy emas.
- Ikkala muassasa ham boshqa universitetdan tashrif buyurgan professor-o'qituvchilarini va tadqiqotchilariga turar joyni ta'minlashda yordam ko'rsatadi, ammo bunda turar joy bilan ta'minlash talab qilinmaydi.
- Ikkala muassasa ham boshqa muassasaning professor-o'qituvchilarini va tadqiqotchilariga tashrif, tadqiqot maydoni, kutubxonalar va boshqa imkoniyatlardan foydalanish, ma'ruzalarni bepul tekshirish imkoniyatlari va tashrif buyurgan olimlarga beriladigan boshqa umumiy shart-sharoitlarni taqdim etadi.

***4-modda: Talabalar almashinuviga***

- Ikkala muassasa ham doktorantura va bakalavriat talabalarining o'zaro almashinuvini ta'minlaydi.
- Har bir o'quv yurti qabul qiluvchi muassasa tomonidan yakuniy tasdiqlanishi sharti bilan almashinuvda ishtirok etuvchi talabalarni tanlash uchun javobgardir. Har ikki muassasanining qatnashuvchi talabalari o'z o'quv yurtiga kirish to'lovini to'laydilar, keyin esa boshqa o'quv yurtida o'qish uchun to'lovlarsiz o'qishadi. Shu bilan birga, sug'urta, talabalar uyushmalari va tashkilotlari va fotokopyalar, laboratoriya mahsulotlari kabi turli materiallardan foydalanish xarakatlari to'lovlari mahalliy talabalardan undiriladigan kichik to'lovlari kabi tashrif buyurgan talabalardan ham olinishi mumkin.
- Har bir muassasa tashrif buyuradigan talabalar uchun mahalliy turar joyni tashkil etishga yordam beradi, biroq, ushbu mahalliy turar joyni narxi tashrif buyurgan talabalar zimmasiga yuklanadi va to'lanadi. Har bir ishtirokchi talaba yoki uning muassasasi sayohatni tartibga solish va ularning xarakatlari uchun faqat o'zi javobgar bo'ladi. Pasport, vizalar, telefon xizmatlari, kitoblar va boshqa shaxsiy soliqlar kabi qo'shimcha to'lovlari ham talaba tomonidan qoplanadi.
- Har bir muassasa o'z talabalariga maxsus stipendiyalar taqdim etish orqali yordam berishi mumkin va har bir muassasa ishtirokchi talabalardan talaba almashinuvda qatnashish paytida o'zlarining tibbiy/sog'liq sug'urtasini saqlab qolishlarini talab qiladi va barcha talabalar mezbon muassasaga bunday sug'urta guvohnomasini taqdim etishlari shart.

### **5-modda: Memorandum boshqaruvchilari**

Ushbu memorandum bo'yicha yakuniy javobgarlik har bir muassasa rektori/prezidenti zimmasiga tushadi, lekin uni boshqarish bo'yicha ma'muriy javobgarlik har bir muassasada quyidagi xodimlarga yuklanadi.

- (i) Ege universiteti uchun: Xalqaro aloqalarni muvofiqlashtirish idorasи
- (ii) O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti: Xalqaro hamkorlik bo'limi

### **6-modda: Memorandumning amal qilish muddati**

1. Ushbu Memorandum ikki ta'lif muassasasining boshqaruv organlari tomonidan rasmiy roziligi asosida qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi va 5 (besh) yil muddat davomida amalda qoladi. Agar ushbu memorandumning amal qilish muddati tugashidan olti oy oldin tomonlardan hech biri uni bekor qilish yoki o'zgartirishni e'lon qilmasa, ushbu memorandum bir xil shartlar va talablar bilan uzaytiriladi.
2. Tomonlardan har biri 6 (olti) oy oldin boshqa Tomonni o'z istagi to'g'risida yozma ravishda ro'yxatdan o'tgan pochta orqali xabardor qilish orqali ushbu Memorandumni bekor qilishi mumkin.
3. Ushbu Memorandum qoidalariga istalgan vaqtida ikkala muassasaning yozma roziligi bilan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

05/03/2024

29/02/2024

**EGE UNIVERSİTETİ**

uchun va nomidan imzolangan



Prof. Dr. Ilkin SENGÜN  
EGE UNIVERSITETI Prorektori

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI  
UNIVERSİTETİ**

uchun va nomidan imzolangan



Prof. Dr. Ilhomjon TUXTASINOV  
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI  
UNIVERSITETI Rektori